



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEKANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIYIQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeviç	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH MEKANIZMLARIGA TA'SIRI	268
A'zamxo'jayeva Nihol	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI: METODOLOGIYA VA TAKOMILLASHTIRISH	273
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	



O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR EKSPORTINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	278
Ruziyeva Nigina Baxtiyorovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILGAN ISLOHOTLAR (MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MISOLIDA)	284
G.A. Norbo'tayeva	
YASHIL MARKETING VA ESG INTEGRATSIYASI: STATISTIK TAHLIL VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	288
Charos G'ayratova	
РАЗВИТИЕ ЦИФРОВЫХ СИСТЕМ И ОБЗОР ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	294
Джуманов, А.А.	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH — IQTISODIY TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI.....	303
Bayitova Rohatoy Bahrom qizi	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRUVCHILARNI SUG'URTA MEKANIZMLARI ORQALI MOLIYALASH MASALALARI	307
Xakimov Zafar Ibragimovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQAROR FAOLIYAT YURITISHINI TA'MINLASH MUAMMOLARI.....	314
Ahrorqulov Jonibek Otabek o'g'li	
FOOD PRICE VOLATILITY AND ITS EFFECTS ON LOW-INCOME HOUSEHOLDS	320
Rakhmatova Mukhlisa Dilshod qizi	
SUN'IY INTELLEKTNING O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI.....	327
Hamidova Shahzoda Odiljanovna	
MHS VA XUSUSIY SEKTOR KREDITLARI: MAMLAKATLARARO EMPIRIK TAHLIL.....	331
Davronbek Matyakubovich Matkarimov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA OLIY TA'LIM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING ZARURATI.....	336
Xasanova Yulduz Kayumovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ALOQA KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	340
Saidqosimova Umida Ibragimovna	
PROSPECTS FOR DEVELOPING BROKERAGE AND UNDERWRITING ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN.....	345
Niyozov Zukhur	
Barnoyev Mirfayoz	
Yadgarov Avaz	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN HIGHER EDUCATION: A GLOBAL REVIEW OF AI-POWERED TEACHING AND LEARNING	349
Begzod Nishanov	
BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	356
Raxim Matniyazov	
Umar Asrayev	
ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	367
Зугурова Зилола Дамировна	



FOREIGN COUNTRIES' EXPERIENCE IN ORGANIZING AND MANAGING SMALL INDUSTRIAL ZONES	371
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ КАК ФИНАНСОВЫЙ РЕСУРС УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ	375
Гимранова О. Б.	
О'ZBEKISTON HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI TAHLILI (2010–2025-yillar)	383
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
MINTAQADA TABIIY KAPITALNI JAMG'ARISH SAMARADORLIGINI INTEGRAL INDEKS ASOSIDA BAHOLASH VA HUDUDLARNI TABAQALASHTIRISH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	388
Raximov Faxriddin Shavkatovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILAR XULQ-ATVORINI MODELLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL VA BIXEVIORISTIK YONDASHUVLARNING INTEGRATSIYASI	393
Urazmatov Jonibek Musurmanovich	
О'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORI: JORIY HOLAT, TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA	398
Eshqobulova Charos O'roq qizi	

O'ZBEKISTON BANK SEKTORIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORI: JORIY HOLAT, TENDENSIYALAR VA XALQARO TAJRIBA



Eshqobulova Charos O'roq qizi
Ma'mun universiteti PhD mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0006-0845-683X
Email: eshqobulovac@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2026-yil holatiga ko'ra O'zbekiston bank sektoridagi raqamli xizmatlar bozorining rivojlanish dinamikasi, "DIGITAL-7" strategik modeli va ochiq bankchilik (Open Banking) tizimining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank tizimini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi, fintex ekotizimining o'sishi va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish masalalari statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida O'zbekiston moliya bozorini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli banking, fintex, DIGITAL-7 modeli, Open Banking, sun'iy intellekt, MHXS (IFRS), kiberxavfsizlik, moliyaviy inkluziya.

Abstract: This article analyzes the development dynamics of the digital services market in the banking sector of Uzbekistan as of 2026, the "DIGITAL-7" strategic model, and the role of the Open Banking system. Based on statistical data, the study highlights the economic efficiency of banking digitalization, the growth of the fintech ecosystem, and the implementation of artificial intelligence technologies. Furthermore, scientific and practical proposals for modernizing the financial market of Uzbekistan are developed based on international experience.

Key words: digital banking, fintech, DIGITAL-7 model, Open Banking, artificial intelligence, IFRS, cybersecurity, financial inclusion.

Аннотация: В данной статье анализируются динамика развития рынка цифровых услуг в банковском секторе Узбекистана по состоянию на 2026 год, стратегическая модель «DIGITAL-7» и роль системы открытого банкинга (Open Banking). На основе статистических данных освещены вопросы экономической эффективности цифровизации банковской системы, роста финтех-экосистемы и внедрения технологий искусственного интеллекта. Также на основе международного опыта разработаны научно-практические предложения по модернизации финансового рынка Узбекистана.

Ключевые слова: цифровой банкинг, финтех, модель DIGITAL-7, Open Banking, искусственный интеллект, МСФО (IFRS), кибербезопасность, финансовая инклюзивность.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining hozirgi taraqqiyot bosqichi — "To'rtinchi sanoat inqilobi" (Industry 4.0) an'anaviy bank modelidan dinamik, ma'lumotlarga asoslangan va ochiq platformali ekotizimlarga o'tishni taqozo etmoqda [1]. Sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar (Big Data), bulutli texnologiyalar, blokcheyn va API-platformalarining jadal rivojlanishi moliyaviy xizmatlar bozorida yangi biznes-modellarni shakllantirib, banklar faoliyatining barcha yo'nalishlarini tubdan transformatsiya qilmoqda. Natijada raqamli bank xizmatlari mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va tezkorligini oshirish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda moliyaviy inkluziyani kengaytirishning muhim omiliga aylanmoqda.



O'zbekistonda bank tizimini raqamli transformatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan bo'lib, so'nggi yillarda masofaviy bank xizmatlari, elektron to'lov tizimlari, onlayn kreditlash va mobil ilovalar orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, banklar faoliyatida Open Banking, fintech hamkorligi va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [2].

2026-yilga kelib, moliya sektori sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi, bunda barcha tijorat banklarini Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (MHXS/IFRS) to'liq o'tkazish va Basel III standartlariga muvofiqlashtirish jarayoni yakunlanmoqda [3]; [14]. Mazkur jarayonlar bank tizimining shaffofligi, barqarorligi va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv darajasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli tijorat banklarining raqamli transformatsiyasi, uning iqtisodiy samaradorligi va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank tizimini raqamlashtirish masalalari global miqyosda Klaus Schwab [4], Brett King [5] va Chris Skinner [6] tomonidan keng tadqiq etilgan. Klaus Schwab raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va platformaviy iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta'sirini "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi doirasida asoslab bergan bo'lsa, Brett King "Bank 4.0" modelida bank xizmatlarining filiallardan mustaqil ravishda istalgan joyda va istalgan vaqtda taqdim etilishi zarurligini ta'kidlaydi. Chris Skinner esa fintech texnologiyalari, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslangan "aqlli bank" modelining nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritgan.

O'zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan ham bank sektorini raqamli transformatsiya qilish masalalari keng o'rganilmoqda. Jumladan, Raxmanov Z. [2] raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish, raqamli biznes-modellarni joriy etish hamda banklarning raqobatbardoshligini oshirish masalalarini tadqiq etgan. Sidiqov R.R. va Allamurotov A.J. [1] O'zbekiston bank tizimida Open Banking texnologiyasini joriy etish istiqbollarini tahlil qilib, banklar va fintech kompaniyalari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvining yangi mexanizmlarini shakllantirish zarurligini asoslab berganlar.

Bank faoliyatini avtomatlashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari Bozarov F. [8] tomonidan o'rganilib, bank axborot tizimlarining operatsion samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xudoyberdiyev U.A. [7] esa Power BI platformasi misolida moliyaviy hisobotlar tahlilini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatib bergan. Primova D.T. [9] bank xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy bosqichlari, rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini tadqiq qilgan.

So'nggi yillarda raqamli transformatsiyaning milliy iqtisodiyot va bank sektori rivojlanishiga ta'siri ham ilmiy izlanishlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Xojaev A.S. va Azizjonov Sh.Sh. [10] bank tizimidagi raqamli o'zgarishlarning iqtisodiy o'sish va moliyaviy inklyuziyaga ta'sirini baholagan bo'lsa, Sharipov D.P. [12] O'zbekiston bank tizimining raqamli transformatsiya sharoitidagi rivojlanish istiqbollarini tahlil qilgan. G'aybullayeva Z.R. va Ma'murjonova F.M. [11] raqamli bank xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari hamda kelajakdagi istiqbolli yo'nalishlarini o'rganganlar. Haydarov O'. [13] esa transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etib, mijozlarga yo'naltirilgan raqamli mahsulotlarning banklar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyatini asoslab bergan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar va bank tizimini transformatsiya qilish jarayonlari bo'yicha e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlarda bank sektorini liberallashtirish, davlat ulushini qisqartirish, IFRS va Basel III standartlarini joriy etish hamda raqamli bank xizmatlarini kengaytirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan [3]. Mazkur ilmiy manbalar va amaliy tadqiqotlar bank tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish, Open Banking infratuzilmasini rivojlantirish hamda innovatsion moliyaviy xizmatlarni kengaytirish bo'yicha nazariy-metodologik asos vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada tizimli tahlil, qiyosiy-tahliliy usullar, SWOT va PESTLE tahlil hamda statistik guruhlash metodlaridan foydalanildi. Raqamli transformatsiya jarayonini baholash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklarining 2021–2025-yillardagi yillik hisobotlari hamda 2026-yil uchun prognoz ko'rsatkichlari empirik asos qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank sektorining raqamli transformatsiyasi 2021–2026-yillar oralig'ida misli ko'rilmagan o'sish dinamikasini namoyon etdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli xizmatlar nafaqat mijozlar qulayligini oshirgan, balki banklarning operatsion samaradorligiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatgan.



2026-yil boshiga kelib, O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni eksponensial ravishda o'sib, aholining moliya tizimiga qamrovi 88 % dan oshdi [10]; [11]; [12] (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda raqamli bank xizmatlarining o'sish dinamikasi¹
(2021–2025-yillar)

Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025
Mobil banking foydalanuvchilari (mln kishi)	14,6	20,2	30,0	43,6	52,9
Muomaladagi faol bank kartalari (mln dona)	25,8	27,1	34,2	46,2	62,0
Elektron to'lovlar ulushi (%)	36,1	45,8	59,3	68,7	87,6
Onlayn-kredit hajmi (trln so'm)	4,0	6,0	9,0	13,0	29,0
Bank xizmatlari qamrovi (aholi ulushi, %)	61,4	65,2	74,6	81,5	88,3

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, besh yil ichida mobil banking foydalanuvchilari salkam 4 baravarga, onlayn kredit hajmi esa 7 baravardan ziyodga oshgan. Bu raqamli platformalar orqali aholining moliyaviy savodxonligi va ishonchi ortganidan dalolat beradi.

Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirgan ("raqamli lider") va an'anaviy banklarning moliyaviy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi (2-jadval) [1]; [2].

2-jadval
Raqamli lider va an'anaviy tijorat banklarining samaradorlik ko'rsatkichlari taqqoslamasi²

Moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlar	Raqamli lider banklar	An'anaviy banklar	Farq / Samaradorlik
Mijozni jalb qilish xarajati (CAC)	Past (60% gacha tejamkor)	O'rtacha / Yuqori	60% xarajatlar iqtisodi
Mijozni ushlab qolish darajasi (Retention Rate)	89%	62%	+27 f.p.
Daromad o'sishi (raqamli kanallar orqali)	20–30%	5–8%	+15–22 f.p.
Operatsion samaradorlik ko'rsatkichi (CIR, %)	40–45% (samarali)	55–60%	15 f.p. gacha pasayish
Bir xizmat ko'rsatish uchun sarflangan vaqt (daqiq)	11 daqiqa	42 daqiqa	74% ga qisqargan

Raqamli lider banklarda mijozni jalb qilish xarajati an'anaviy banklarga nisbatan 60 % ga arzonroq ekanligi aniqlandi. Shuningdek, tranzaksiyalar avtomatlashishi natijasida operatsiyalar tannarxi 15–25 foizga qisqargan.

O'zbekiston bank tizimi uchun taklif etilayotgan kompleks transformatsiya modelining 2026-yilgacha bo'lgan kutilayotgan natijalari quyidagi KPI tizimida aks etadi (3-jadval) [2].

1 Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobotlari asosida mualliflar tomonidan shakllantirilgan.

2 Manba: Muallif tomonidan xalqaro fintex tadqiqotlari va bank hisobotlari asosida shakllantirilgan.



3-jadval
«DIGITAL-7» modelining strategik yo'nalishlari va KPI ko'rsatkichlari³

Element	Strategik yo'nalish	Asosiy KPI	Maqsadli ko'rsatkich
Data	Ma'lumotlar ekotizimi	Data Quality (Ma'lumotlar sifati)	≥ 95%
Innovation	Innovatsiyalar ekotizimi	Innovatsion mahsulotlarning umumiy ulushi	≥ 20%
Governance	Strategik boshqaruv	Strategy Execution (Strategiya ijrosi)	≥ 85%
Infrastructure	Aqli infratuzilma	Cloud Coverage (Bulutli texnologiyalar qamrovi)	≥ 70%
Talent	Inson kapitali	AI (Sun'iy intellekt) kompetensiyali xodimlar	≥ 30%
Agile	Tezkor biznes jarayonlar	Time-to-Market (Mahsulotni bozorga chiqarish vaqti)	≤ 90 kun
Learning	Mijoz tajribasi	Retention Rate (Mijozlarni ushlab qolish darajasi)	≥ 85%

Ushbu model bankning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlashda texnologiyani alohida loyiha emas, balki integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Raqamli bank xizmatlari rivojlanishi AKT sohasining YaIMdagi ulushi o'sishi va bank aktivlarining kapitallashuviga bevosita bog'liqdir (4-jadval) [13].

4-jadval
Bank aktivlari va AKT tarmog'ining YaIMdagi dinamikasi⁴

Yillar	YaIM (mlrd so'm)	AKT ulushi (%)	Bank aktivlari ulushi (%)	Bank kapitali ulushi (%)
2020	668 038	1,49	40,83	7,64
2022	995 573,1	1,66	44,69	7,12
2024	1 454 573,9	2,21	44,82	6,60
2026 (P)	Prognoz	≥ 3,0	≥ 48,0	≥ 7,5

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank tizimi aktivlari 2020-yildan 2024-yilgacha real qiymatda qariyb 2,4 barobar oshgan bo'lsa, AKT tarmog'ining hajmi 3,2 barobarga kengaygan. Bu raqamli infratuzilmaning bank sektorini rivojlantirishdagi drayverlik rolini isbotlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston bank sektorida raqamli xizmatlar bozorining joriy holati, rivojlanish tendensiyalari va xalqaro tajribasini tadqiq etish natijasida quyidagi umumiy xulosalar shakllantirildi:

Moliyaviy qamrovning kengayishi: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlar natijasida masofaviy bank xizmatlari an'anaviy bank modelini to'liq transformatsiya qildi. Aholining mobil banking va elektron to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi ortishi moliya bozorida inklyuzivlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Operatsion samaradorlik: Raqamli platformalar va innovatsion ekotizimlarning joriy etilishi banklar uchun ham, mijozlar uchun ham iqtisodiy jihatdan yuqori samara bermoqda. Bu texnologiyalar mijozlarni jalb qilish va ularga xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirib, banklarning ichki xarajatlarini sezilarli darajada optimallashtirish imkonini berdi.

³ Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi va Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan va hisoblangan. (P) – Prognoz ko'rsatkichlari.



Makroiqtisodiy bog'liqlik: Axborot texnologiyalari infratuzilmasining rivojlanishi va bank aktivlarining o'sishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bank tizimini raqamlashtirish umumiy iqtisodiy yuksalishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi.

O'tkazilgan tadqiqot asosida milliy bank tizimida raqamli xizmatlarni yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Kompleks strategik boshqaruv: Tijorat banklari uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini belgilashda texnologiyani shunchaki alohida loyiha emas, balki boshqaruv tizimi, ma'lumotlar sifati va inson kapitalini qamrab oluvchi yaxlit model (masalan, "DIGITAL-7" modeli) asosida tashkil etishlari lozim.

Ochiq bankchilik (Open Banking) tizimini rivojlantirish: Bank xizmatlarining jozibadorligini oshirish va raqobatbardosh muhitni yaratish uchun fintex kompaniyalari bilan xavfsiz ma'lumotlar almashinuvini ta'minlovchi yagona ochiq standartlarni keng joriy etish zarur.

Kiberxavfsizlik muhitini kuchaytirish: Onlayn kreditlash va masofaviy operatsiyalar ko'lamining kengayishini inobatga olgan holda, firibgarlik holatlarini barvaqt aniqlash va kiber tavakkalchiliklarni boshqarishda zamonaviy himoya tizimlaridan foydalanish talab etiladi.

Kadrlar salohiyatini oshirish: Bank tizimida innovatsion va aqlli xizmatlarni boshqara oladigan, raqamli ko'nikma hamda intellektual texnologiyalar bilan ishlash tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash tizimini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sidiqov R.R., Allamurotov A.J. O'zbekiston bank tizimida "Open Banking" texnologiyasini joriy etish istiqbollari // "Moliya va intellektual texnologiyalar" elektron ilmiy jurnali. (TIFI Universiteti). – 2026. – № 1.
2. Raxmanov Z. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining rivojlanish strategiyasini takomillashtirish yo'llari // «Muhandislik va Iqtisodiyot» jurnali. – 2026. – Vol. 4. No. 6. – B. 181-186. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20588104>.
3. «Мы подошли к самым сложным этапам банковской реформы» - ЦБ Узбекистана // Spot.uz elektron nashri. – 2026. – 16-yanvar. URL: <https://www.spot.uz/ru/2026/01/16/banking-reform/>
4. Schwab, K. (2016). The Fourth Industrial Revolution. Geneva: World Economic Forum.
5. King B. Bank 4.0: Banking Everywhere, Never at a Bank. – Singapore: Marshall Cavendish International (Asia) Pte. Ltd., 2018; London: John Wiley & Sons Ltd. (Reprint), 2019. – 350 p.
6. Skinner C. Intelligent Bank: The Third Fintech Revolution. – Independently published, 2026. – 417 p. ISBN: 979-8257666346.
7. Xudoyberdiyev U.A. Tijorat banklari moliyaviy hisobotlari tahlilini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirish takliflari: Power BI platformasi misolida tahliliy yondashuvlar // "Ilm-fan, raqamli transformatsiya va intellektual taraqqiyot integratsiyasi" mavzusidagi magistrning I Respublika ilmiy forumi materiallari to'plami (2026-yil 2-aprel). – Toshkent: Kimyo International University in Tashkent, 2026.
8. Bozarov F. Bank faoliyati avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va texnologiyalari. – Chirchiq, 2021.
9. Primova D.T. Bank xizmatlarini raqamlashtirishning asosiy bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – 2026. – № 11. – B. 2155-2165.
10. Xojaev A.S., Azizjonov Sh.Sh. O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning rivojlanishida bank tizimining raqamli transformatsiyasi va uning ta'siri tahlili // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – № 13. – B. 810-819.
11. G'aybullayeva Z.R., Ma'murjonova F.M. Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi va kelajagi // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – 2026. – № 15. – B. 533-539.
12. Sharipov D.P. Raqamli transformatsiya sharoitida O'zbekiston bank tizimining rivojlanish istiqbollari // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – 2025. – № 12. – B. 532-539.
13. Haydarov O'. Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari // "Research and Development" (Tadqiqot va taraqqiyot) ilmiy jurnali. – 2025. – II-jild. № 12. – B. 67-74.
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2020–2026 I-chorak) Moliyaviy barqarorlik hisobotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>